

## INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA OZIQ-OVQAT KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING METAFORIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

**Adimova Nilufar Kamiljanovna**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20092552>

Frazeologik birliklar va metaforalarning mazmuniy tuzilishi va ularda mujassamlashgan madaniy konnotatsiyalar kognitiv bilim manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli frazeologizmlar va metaforik motivatsiyaga ega bo'lgan ko'chma ma'noli birliklar madaniy belgilarni ifodalovchi lingvistik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday birliklar orqali til nafaqat kommunikativ vazifani bajaradi, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlari ham aks etadi. Metaforalashtirish frazeologizmlarning shakllanishidagi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Dj.Lakoff va M.Djonson metaforalar inson tajribasini aks ettiruvchi konseptual modellar asosida quriladi, degan fikrni bildirishgan.

Ingliz madaniyatida ovqat frazeologiyasidagi konseptual model ko'pincha mahsulotning hissiyoti va sifat xususiyatlariga tayanadi:

issiq - kuchli sezgi (hot);  
sovuq - ruhiy xotirjamlik (cool);  
achchiq - salbiy tajriba (achchiq).

Qoraqalpoq tilida model axloqiy va ijtimoiy kategoriyalarga asoslangan:

non- nomus, ont;  
sut - tozalik, ma'naviyat;  
go'sht - kuch.

Bu farqlar A.Vejbitskayaning ovqat konsepsiyalari ma'lum bir jamoaning qadriyatlar tizimi va axloqiy me'yorlarini aks ettiradi degan tezisini tasdiqlaydi.

N.I. Tolstoy va S.M. Tolstoy fikricha, taom an'anaviy jamiyatlarda yetakchi madaniy belgilardan biri hisoblanadi. Frazeologizmlar bu belgilarni mustahkamlab, maishiy buyumni madaniy belgiga aylantiradi.

Ingliz madaniyatida belgilari quyidagilar:

bread - daromad, mehnat;  
butter - foyda;  
meat - hayotning asosi;  
salt - muvozanat, tanqidiy qarash.

Qoraqalpoq madaniyatida quyidagilar belgi hisoblanadi:

non - or-nomus, muqaddaslik;  
sut - poklik, onalik;  
go'sht - kuch;  
bol - so'z shirinligi, Baraka;  
tuz - sadoqat, mardlik.

Metafora hodisasi turkiy tillar tilshunosligida semantik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtai nazardan keng o'rganilgan bo'lib, u til birliklarining, xususan, frazeologik birliklarning shakllanishida muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan frazeologik birliklar, ayniqsa, oziq-ovqat komponentli birliklar, ko'pincha metaforik asosda yuzaga kelib, insonning borliqni konseptuallashtirish jarayonini aks ettiradi. Metaforalashtirish jarayoni natijasida

konkret predmet nomlari (masalan, ovqat, ichimlik, meva) abstrakt tushunchalarni ifodalash vositasiga aylanadi va bu esa frazeologik birliklarning semantik kengayishiga olib keladi. Shuning uchun ham frazeologizmlar va ko'chma motivlashgan so'zlar (metaforalar) madaniy belgilarning tashqi ko'rinishi hisoblanadi.

O'zbek tilshunosi Sh. Rahmatullayev metaforani tilning semantik taraqqiyotida muhim omil sifatida baholab, uning yordamida so'z ma'nolarining kengayishi va yangi semantik qatlamlarning paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Bu fikr frazeologik birliklarning shakllanishiga ham bevosita taalluqli bo'lib, ular ko'pincha metaforik ko'chish asosida barqarorlashadi. B. Mengliyev esa metaforani til va tafakkur o'rtasidagi uzviy aloqaning ifodasi sifatida ko'rib, uni insonning konseptual tizimini shakllantiruvchi vosita deb hisoblaydi. Bu yondashuv oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarni kognitiv model sifatida tahlil qilish imkonini beradi. N. Mahmudovanning tadqiqotlarida metaforaning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilib, u xalqning tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi birlik sifatida baholanadi. Xuddi shu jihat ovqat komponentli frazeologizmlarda ham yaqqol ko'rinadi, chunki ular milliy taomlar va an'analar bilan bevosita bog'liq.

Turkiy tilshunoslikda D. Aksan metaforani obraz yaratish vositasi sifatida tahlil qilib, u orqali xalqning dunyoqarashi va madaniy modeli aks ettirilishini ta'kidlaydi.

Ozog'iston tilshunosligida ham metafora hodisasi tadqiq etilgan bo'lib, bu borada Rabiga Sizdikning ishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Olim metaforani badiiy matnlarning ta'sirchanligini ta'minlovchi hamda milliy madaniy tafakkurni aks ettiruvchi muhim stilistik vosita sifatida baholaydi. Bizning fikrimizcha, metafora nafaqat badiiy nutqni bezovchi stilistik vosita, balki inson tafakkurida mavjud tushunchalar o'rtasidagi murakkab konseptual aloqalarni anglatuvchi muhim kognitiv mexanizm hisoblanadi. Shu jihatdan metafora til, tafakkur va madaniyatning o'zaro munosabatini aks ettiruvchi lingvokognitiv hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Demak, metaforalar orqali inson borliqni anglaydi, uni konseptualashtiradi va til vositasida obrazli tarzda ifodalaydi. Shu sababli metaforani o'rganish til birliklarining semantik taraqqiyoti hamda milliy tafakkur va madaniy tajribaning til orqali aks etish jarayonini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Shundan kelib chiqib, frazeologik birliklarni tasniflash jarayoni nafaqat struktur-semantik mezonlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularning metaforik motivatsiyasini ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, "oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklarni tasniflashda ularning qanday konseptual metaforalar asosida shakllangani (masalan, "OVQAT - FAROVONLIK", "OVQAT - HAYOT", "OVQAT - IJTIMOYIY MUNOSABAT" kabi modellari) muhim mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, frazeologik birliklarning tasnifi metaforalashtirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqilib, ularning semantik, kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini kompleks tarzda ochib berish imkoniyatini yaratadi.

Frazeologik birliklarni (FB) tasniflash frazeologiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi, chunki u ularning strukturasi, semantikasi va pragmatik vazifalarini tahlil qilish uchun tizimli asos yaratadi. Tasniflashning zarurligi, ayniqsa, ovqat komponentini o'z ichiga olgan birliklar uchun muhimdir, chunki ular tillar orasidagi idiomalarning eng boy va madaniy belgilangan guruhlaridan birini tashkil qiladi. Bu tushunchalar madaniy ma'nolarni, qadriyatlarni va dunyoqarashlarni kodlashtirish bilan birga barqaror lingvistik belgi vazifasini ham bajaradi. Klassifikatsiyaning nazariy asosi XX asrning boshlariga borib taqaladi. Balli frazeologizmlarning uslubiy-ekspressiv xarakterini ko'rsatib, ularni lingvistik obrazlilikning

zarur elementi deb hisobladi. Rus va postsovet tilshunosligida Vinogradov komponentlar orasidagi semantik aloqadorlik darajasiga asoslangan frazeologik birikmalar, birliklar va iboralarning semantik uch qismli tasnifini shakllantirdi. Komponentlar orasidagi semantik aloqadorlik darajasiga ko'ra frazeologik birikmalar (fusions), birliklar (unities) va kombinatsiyalarni (combinations) ajratib ko'rsatgan. Bunday yondashuv frazeologik tadqiqotlarga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu yondashuv oziq-ovqat komponentli FBlarni tahlil qilishda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, chunki ularning ko'pchiligi metaforik ko'chirish va ma'no yopiqqligini ko'rsatadi, masalan, to spill the beans (fusion) yoki bread and butter (unity).

Shuningdek, u struktural-tipologik model, idiomatik manbalari va frazeologik birliklarning kommunikatsiyadagi funksional o'rinlarini ko'rsatadi. (1996,45-47bb) Bu yondashuv gastronomik FBlarning nafaqat leksik, balki milliy urf-odat va qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy belgilar ekanligini ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilida "big cheese" - obro'li odam, qoraqalpoq tilida "qabaq bas" ko'chma ma'noda aqlsiz, farosatsiz, cheklangan odamni tasvirlash uchun qo'llaniladi. Bu frazeologik birliklarda ikki xalqning oziq-ovqatlari asosiy komponent sifatida qo'llanilgan.

Ovqat komponentli frazeologizmlarni tizimli tarzda tasniflash bir qancha sabablarga ko'ra zarur. Birinchidan, u frazeologizmlarning keng doirasini bir-biriga bog'liq guruhlariga ajratib, tillar orasidagi qiyosiy tahlilni amalga oshiradi. Ikkinchidan, ingliz tilini qoraqalpoq frazeologiyasidan ajratib turadigan madaniy xususiyatlarini ko'rsatadi. Uchinchidan, frazeologizmlarning lingvokulturologik, pragmatik va kognitiv tahlillariga metodologik asos yaratadi. Nihoyat, bunday tasniflash madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun ovqat bilan bog'liq idiomalardan foydalanish mumkin bo'lgan chet tillarni o'qitish kabi amaliy sohalarga o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, ovqatga oid frazeologizmlarni nafaqat lingvistik (semantik, struktur, stilistik) asoslar bo'yicha, balki madaniy, kognitiv va pragmatik darajalar bo'yicha ham tasniflash asoslangan. Bu ko'p tomonlama yondashuv frazeologizmlarning lingvistik va madaniy belgilar sifatida har tomonlama tushunilishini ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Abdinazimov Sh., Tolibaev X. Lingvokulturologiya Nukus, 2020 113-b.
2. Aksan D. Her Yönuyle Dil. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1995. – B. 162–165
3. Arnold, I. V. (1986). The English word. Moscow: Vysshaya Shkola.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press. (Original work published 1980).PP25-30
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press. (Original work published 1980).45
6. Mahmudova N. Til va madaniyat masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 84–86
7. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 112–114.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 15–17
9. Syzdyk R. Söz qudreti. – Almaty: Sanat, 1997. – B. 56–58
10. Бердимуратов Е. Хэзирги заман қарақалпақ тилиниң лексикологиясы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1968.